

BOLALARDA UCHRAYDIGAN NEVROLOGIK KASALLIKLAR ULARING KELIB CHIQUISH SABABLARI DAVOLASH USULLAR

Valiyev Lutfullo Xayrullojon o'g'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fakulteti pediatriya ishi yo'nalishi

Email: valiyev177i@gmail.com

Tel: +998 94 922 77 01

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17375817>

Anotatsiya

Ushbu maqolada bolalar orasida keng tarqalgan nevrologik kasalliklar, ularning asosiy kelib chiqish sabablari, klinik belgilari va zamonaviy davolash usullari yoritib berilgan. Shuningdek, erta tashxis qo'yish va profilaktik choralarni amalga oshirishning ahamiyati ta'kidlangan. Maqolada bolalarda uchraydigan nevrologik muammolarni o'z vaqtida aniqlash va samarali davolash orqali asoratlarning oldini olish muhimligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: bolalar nevrologiyasi, nevrologik kasalliklar, sabablar, tashxis, davolash, profilaktika

Anotation

This article highlights the most common neurological disorders in children, exploring their main causes, clinical manifestations, and modern treatment approaches. It also emphasizes the importance of early diagnosis and implementation of preventive measures. The article underscores the necessity of timely identification and effective treatment to prevent complications associated with neurological conditions in childhood.

Keywords: pediatric neurology, neurological disorders, causes, diagnosis, treatment, prevention

Аннотация

В статье рассматриваются наиболее распространённые неврологические заболевания у детей, их основные причины, клинические проявления и современные методы лечения. Подчёркивается важность ранней диагностики и проведения профилактических мероприятий. Освещается необходимость своевременного выявления и эффективного лечения для предотвращения осложнений при неврологических нарушениях в детском возрасте.

Ключевые слова: детская неврология, неврологические заболевания, причины, диагностика, лечение, профилактика

KIRISH

Bolalarda uchraydigan nevrologik kasalliklar bugungi kunda pediatriya va nevrologiya sohasining eng dolzarb muommolaridan biridir. Bunday kasalliklar bolaning ruhiy, jismoniy va aqliy rivojlanishiga bevosita ta'sir qilmay qo'ymaydi. Miya faoliyatidagi buzilishlar, genetik ozgarishlar, infeksiyalar yoki tug'ilish paytidagi asoratlar tufayli nevrologik muommolar yuzaga keladi. Shifokorlar ta'kidlashicha, erta tashxis va tog'ri davolash orqali bu kasalliklarning aksariyatida bolaning hayot sifatini yaxshilash mumkin.

Quyidagi maqolada bolalarda eng ko'p uchraydigan nevrologik kasalliklar, ularning sabablari va davolanish usullari haqida ma'lumot beriladi

1. Epilepsiya

Epilepsiya – bu takrorlanuvchi tutqanoq [seizure] xurujlari bilan kechadigan miya faoliyati buzilishi bo'lib, u turli shakllarda namoyon boladi. Ba'zi bolalarda bu holat tug'ma, boshqalarda esa hayot davomida orttirilgan bo'ladi.

Sabablari

- Gentik moyillik
- Tug'ilishdagi asfiksiya yoki miya shikastlanishi
- Infektsiyalar [meningit, ensefalit]
- Bosh miya jarohatlari

Davolas

Asosiy davo usuli – antiepileptik dorilar. Ular xurujlarni kamaytirish yoki butunlay oldini olishga yordam beradi. Dori samara bermagan taqdirda ketogenic dieta, nerv stimulyatsiyasi yoki jarrohlik amalyoti qo'llaniladi.

2.Sereblar Palci [cp] Serebral falaj

Selebral palci – bolaning miya tuzilmalari shikastlanishi natijasida paydo bo'ladigan, harakat va holat buzilishi bilan kechuvchi surunkali holatdir.

Sabablari

- Homiladorlik davridagi infektsiyalar yoki toksik ta'sirlar
- Tug'ruqdagi asfiksiya [kislarod yetishmasligi]
- Miya qon aylanishing buzilishi
- Prematurlik [muddatdan oldin tug'ilish]

Davolash

To'liq tuzalish odatda imkonsiz, ammo holatni yengillashtirish uchun kompleks yondashuv zarur.

- Fizioterapiya va rehabilitatsiya;
- Mushak spazmini kamaytiruvchi dorilar
- Botulin toksini inyektsiyalari
- Zarur hollarda ortopedik yoki neyroxirurgik amaliyotlar

3. Meningit va Ensefalit

Ta'rif

Meningit – bu miya pardalarining, ensefalit esa miya to'qimalarining yallig'lanishidir. Ular ko'pincha bakterial yoki virusli infektsiyalar natijasida rivojlanadi ..

Sabablari

- Bakteriyalar – Neisseria meningitidis, Streptococcus pneumoniae, Haemophilus influenzae
- Viruslar – enterovirus, herpes virus va boshqa....

Davolash

- Bakterial shaklda – tezkor antibiotic terapiyasi
- Virusli shaklda – antiviral dori [asoklovir]
- Og'ir hollarda – kortikosteroidlar, suyuqlik balansini tiklash va simptomatik yordam

berish

Oldini olish

Emlash[hib,pnevmonokokk,meningokokk vaksinalari] orqali meningitni oldini olish mumkin.

4. Rivojlanish kechikishi va Autizm spektri buzilishi

Rivojlanish kechikishi va autism spektri buzilishi [ASD] bolaning nutqi, ijtimoiy muloqoti va xulq-atvoridagi og'ishlar bilan bog'liq.

Sabablari

- Genetic omillar
- Homiladorlik davridagi toksik ta'sirlar
- Ba'zi holatlarda infeksiyalar yoki kislarod yetishmasligi

Davolash

- Nutq terapiyasi [logoped]
- Xulq – terapiya va psixologik qo'llab quvvatlash
- Ota – onalar bilan ishlash ijtimoiy moslashuv mashg'ulotlari

5. Neyromuskulyar kasalliklar

Neyromuskulyar kasalliklar – mushak va nerv tizimi orasida aloqa buzilishi natijasida paydo boladigan genetic yoki orttirilgan kasallik. O'g'il bolalarda uchraydigan mushaklarning asta – sekin zaiflashuvi bilan kechuvchi kasallikdir.

Sabablari

- Genetic mutatsiyalar [X – xromosoma bilan bog'liq]
- Ba'zida immun tizimi buzilishi.

Davolash

- Fizioterpiya va reabilitatsiya mashg'ulotlari.
- Yurak va nafas tizimini qo'llab – quvvatlovchi davo.
- Yangi tadqiqotlarda gen terapiyasi usullari sinovdan o'tmoqda.

Xulosa

Bolalar orasida uchraydigan nevrologik kasalliklar ularning jismoniy va aqliy rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu kasalliklarning erta aniqlanishi, to'g'ri tashxis qo'yilishi va kompleks davolash usullarining qo'llanilishi bolaning hayot sifati va sog'lig'ini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Serebral falaj, epilepsiya, autizm spektr buzilishlari va diqqat yetishmovchiligi-giperfaollik sindromi kabi holatlar o'z vaqtida tibbiy aralashuvni talab qiladi. Zamonaviy davo usullari — dori vositalari bilan terapiya, reabilitatsiya, nutq va psixologik muolajalar — kasallik oqibatlarini kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, homiladorlik davrida profilaktik chora-tadbirlar va pediatrik nazorat orqali bu kasalliklarning oldini olish mumkin. Mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bolalar nevrologiyasini yanada chuqurroq o'rganish va kasalliklarni barvaqt bartaraf etishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimova D.N. "Bolalar nevrologiyasi asoslari". Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.
- 2.Raxmatova Z.X. "Pediatriyada uchraydigan nevrologik kasalliklar". Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2019.
- 3.World Health Organization (WHO). Neurological Disorders: Public Health Challenges. Geneva, 2006.
- 4.Nelson Textbook of Pediatrics, 21st Edition. Editors: Kliegman R., Stanton B., Elsevier, 2020.

5. Rakhimov A.M. va boshqalar. "Bolalarda asab tizimi kasalliklari". Toshkent: "Ibn Sino" nashriyoti, 2018.
6. American Academy of Pediatrics. Guidelines on the diagnosis and management of ADHD in children, 2019.
7. Турсунов Ш.А. "Педиатрик неврология: замонавий yondashuvlar". Toshkent, 2021.
8. Djamolov U. "Неврологiyada klinik amaliyot". Samarqand tibbiyot instituti, 2022.